



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
1-"___" sinf rahbari

_____ning
2023-2024-o'quv yili uchun

SINF SOATLAR ISH REJASI VA DARS ISHLANMALARI

Tushuntirish xati

Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarorida belgilandi. 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab 1-11-sinflarda haftaning juma kunidagi birinchi darsni sinf rahbarlari va tegishli mutahassislar tomonidan “Sinf soati” sifatida o‘tilishi yo‘lga qo‘yildi. **Ma’lumki, sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarning bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’ul shaxs hisoblanadi.**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me’yoriy hujjatlar va Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 30-iyuldagi 180-sonli buyrug‘i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”** asosida tashkil etildi.

Mazkur dastur va metodik qo‘llanmayuqorida nomlari keltirilgan ta’limga oid huquqiy va me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

Dasturning maqsadi — Sinf soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma’naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Sinf soat dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy ta’sirlari ham sezilmoqda. Bu masalani o‘quvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodoblighi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas’uliyatning yetishmasligi, atrofidaqilar bilan kelisha olmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. SHuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”ga asosan “Sinf rahbari - Ta’lim muassasasining Sinf soati tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo‘lib, o‘ziga birlashtirilgan sinf O‘quvchilarining amalda belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.”SHu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunda ta’lim muassasalari **sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga o‘xshash muammolar ko‘zga tashlanmoqda:**

- Ayrim sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida o‘z oldilariga qo‘ygan maqsad va vazifalarining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi;
- Sinf soatlarning aniq o‘quv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- Ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning ko‘pchiligidan o‘qituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- Ba’zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- Ayrim ta’lim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar mavjudligi;
- Ba’zi sinflardagi o‘quvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- Ayrim o‘quvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- O‘quvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- Voyaga yetmaganlar o‘rtasida turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi;
- O‘quvchi tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;

- Baʼzi oʻqituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;
- Sinf soati ishlar taʼsirchanligining pastligi;
- Ota-onalar bilan samarali muloqotning yoʻlga qoʻyilmaganligi;
- Huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini isteʼmol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish boʻyicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Shu oʻrinda masalaning muhim bir jihatiga eʼtiboringizni qaratmoqchimiz.

Bugungi kunda umumtaʼlim maktablarida Sinf soatlar amalda qanday tashkil qilinmoqda?

- Bugungi kundagi aksariyat hollarda Sinf soatlar quruq gaplardan iborat boʻlib, Sinf soat mavzularidan chetga chiqib ketiladi;
- Qaysidir oʻquvchining xulqi muhokamaga qoʻyiladi;
- Oʻquvchilarning fanlarni oʻzlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;
- Qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida soʻz boradi.

Sinf soatlar qanday boʻlishi kerak?

- Taʼlim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi Sinf soatlar ham yaxlit Sinf soati usullar, taʼsirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi.
- Sinf rahbari ushbu tadbirlarni oʻtkazishga doir aniq ish rejasiga ega boʻlishlari lozim.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va maʼnaviy jihatdan Sinf soati ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Maʼnaviyat yoʻq ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs boʻla olmaydi. SHuning uchun ham sinf rahbarlari va butun oʻqituvchilar jamoasi oldida oʻquvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni oʻrgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli gʻoyalar oʻrtasidagi kurash keskinlashgan, “ommaviy madaniyat” xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmogʻi orqali uzatilayotgan buzgʻunchi axborotlar inson qalbi va ongini oʻziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz boʻlgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Sinf soati ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi boʻlgan barcha gʻoyalar qaytadan koʻrib chiqilishi, asosiy eʼtibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida toʻplangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, doʻstlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, sanʼat, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita taʼsir koʻrsatadi. SHuning uchun ham barcha sinf rahbarlari oʻz Sinf soati faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Sinf soatlar oʻquvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiq etish maydoni hisoblanadi. Toʻgʻri tashkil etilgan Sinf soatlar oʻquvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Oʻquvchilarda hulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan toʻgʻri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Sinf soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, Sinf soatlar orqali oʻquvchilarda toʻgʻri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, boʻsh vaqtini toʻgʻri taqsimlash, oʻz iqtidorini rivojlantirish uchun turli toʻgaraklarni toʻgʻri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki oʻzi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Sinf soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan boʻlib, quyidagi yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi. Vatanparvarlik; axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigienik, ekologik hamda estetik tarbiya shuningdek, oʻquvchilarni toʻgʻri kasb tanlashga yoʻnaltiradi. Sinf soatlarning mazkur yoʻnalishlari Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, uzviyligi, oʻquvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Shuningdek, mazkur kompetensiyalar har bir Sinf soatning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Umumtaʼlim maktablarining 1-11-sinf oʻquvchilari uchun tuzilgan “Sinf soatlar uchun namunaviy mavzular rejasini” mazmunan Sinf soati-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida oʻquvchilar uchun Sinf soati dars soatlarini oʻtishda nimalarga eʼtibor berish kerakligi eʼtiborga olingan.

Mazkur dastur va qoʻllanmada bugungi kunda sinf rahbarlari uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida Respublika Taʼlim markazi mutaxassislari va amaliyotchilar hamkorligida “Sinf soat”larning mashgʻulot ishlanmalari tavsiya etiladi.

“Sinf soat”lar rejasidagi 8 soatlik “Yo‘l harakati qoidalariga” doir mavzular dasturi va dars ishlanmalari mazkur qo‘llanmada aks ettirilmagan.

Umumta’lim maktablarining o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan “Sinf soat” mashg‘ulot ishlanmalarida mazmunan o‘quvchilarda Sinf soati-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda o‘tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e’tibor berish lozimligi to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Sinf soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma’ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Sinf soatlarda foydalanish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbat, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan’anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan Sinf soatlar dasturiga Umumta’lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko‘ra 15 % gacha o‘zgartirish kiritilishi mumkin.)

“Tasdiqlayman”

Maktab MMIBDO‘: _____

**“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 2023-2024-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi
1–SINF**

№	O‘tiladigan mavzular	Soati	Rejada	Amalda	Uyga vazifa
1.	O‘zbekiston-ona vatanim!				She‘r yodlash
2.	Tabiatni muhofaza qilish.				Rasm chizish
3.	Mening kun tartibim.				Kun tartibini tuzib kelish
4.	Xavfsizlik nima?				O‘rganib kelish
5.	Ustozga ta‘zim! (Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan)				She‘r yodlash
6.	4-oktabr butun jahon hayvonlarni himoya qilish kuni.				Ma‘lumot toplash
7.	Tejamkorlik haqida suhbat.				Suhbat
8.	Ona tilim – jonu dilim.				She‘r yodlash
9.	Oltin kuz ertaklari.				Ertak o‘qish
10.	Ta‘til taassurotlari.				Matn tuzish
11.	Bayrog‘imiz – faxrimiz.				She‘r yodlash
12.	Ertaklar yaxshilikka – yetaklar.				Ertak o‘qish
13.	Qomusimiz–baxtimiz (8-dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).				Moddalar bilan tanishish
14.	Madhiyani kuylaylik (10-dekabr - Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).				Yod olish
15.	Mas‘uliyat nima?				Suhbat
16.	Yangi yil muborak (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan).				Bayramga tayyorgarlik
17.	Vatan posbonlari (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).				She‘r yodlash
18.	Mening mahallam.				Suhbat
19.	Yaxshi tarbiya - inson ziynati.				Suhbat
20.	Bobolarimiz deydilar... (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan).				Ma‘lumot toplash
21.	Men va mening oilam				Suhbat
22.	Bizni dunyo qanday taniydi.				Ma‘lumot toplash
23.	Mehribonim onam (8-mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).				She‘r yodlash
24.	Navro‘z – bahor bayrami (21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan).				Bayramga tayyorgarlik
25.	Suv hayot manbai.(22-mart butun jahon suv resurslari kuni munosabati bilan)				Suhbat
26.	Mehnat-mehnatning tagi rohat.				Maqollar yodlash
27.	Ona tabiat qo‘ynida.				Rasm chizish
28.	Men sevgan ertak qahramoni.				Suhbat
29.	Mening qahramonim.				Rasm chizish
30.	Bobom xotiralari (Xotira va qadrlash kuni oldidan).				Ma‘lumot toplash
31.	Ilm va hunar ko‘kka yetkazar.				Hikmatli gaplar
32.	Yoz – o‘tadi soz!				Ma‘tn yozish
33.	Men 1-sinfni tugatdim (Maktab haqida taassurotlarim).				Takrollash

Sana: “ ” _____ 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

1-mavzu: O‘zbekiston-ona Vatanim!

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarda mustaqil vatanimiz bilan faxrlanish va milliy g‘urur tuyg‘ularini uyg‘otish. Yurt, ona Vatan haqidagi tushunchalarni o‘quvchilar ongiga yetkazish. Vatanga muhabbat tuyg‘usini tarbiyalash, nutqini o‘stirish.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallaydi

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantiradi

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

Ma‘naviyat daqiqasi:

Vatan ona, Vatan chamandir,

Vatan quyosh, Vatan osmondir.

II. Asosiy qism:

Vatan-bu sen,ota-onang,oilang va do‘stlaring yashayotgan yer. Vatan –bu sen bilan birga yashayotgan qushlar,daraxtlar.

Ko‘chadan kelar ekansiz,yuzlab derazalar ichidan o‘z uyingiz derazasiga qaraysiz.Nega boshqa derazaga qaramaysiz? Chunki o‘sha derazaning ichida sizning vataningiz bor.

Bizning Vatanimiz O‘zbekiston! O‘zbekiston –muqaddas Vatan. Aziz bobolarimiz ota-onamiz tug‘ilib o‘sgan maskan. Biz uchun Vatan bitta! Mamlakat bitta! Bizning go‘zal yurtimiz, noyob tabiatimiz, betakror Vatanimiz, bag‘ri keng va oliyjanob xalqimiz bor.

Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** bejizga “Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim” deb aytmaganlar. Shu sababli ta‘limni O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo‘nalish, deb e‘lon qilingan.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va manfaatlarini, uning qadri, sha‘ni va g‘ururini yetakchi o‘ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo‘linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta‘minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko‘p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2019 yil 19-martdagi videosektorda ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surgan 5 ta muhim tashabbus:

1	Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.
2	Yoshlarni jismoniy chiqarish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.
3	Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.
4	Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.
5	Xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash masalalarini nazarda tutadi.



Ona Vatanimiz mustaqilligini keng nishonladik. Darhaqiqat, asrlarga ta‘tigulik bu yillar mobaynida Yurtboshimiz rahnamoligida xalqimizning farzandlar iqbolini o‘ylab, bir maqsadu muddao bilan, bir tanu bir jon bo‘lib amalga oshirilgan beqiyos ezgu amallari natijasida bugun mamlakatimizni dunyo tan olmoqda. O‘z tanlagan yo‘li, o‘z aytar so‘zi va amali bilan jahonni lol qoldirayotgan davlatimiz tobora barkamollik sari intilayapti Savol:.

-Biz ham barkamol avlod bo‘lishimiz uchun o‘zimizda qaysi fazilatlarini tarbiyalamog‘imiz darkor? -(...).

Tarona guruhining “O‘zbekiston” qo‘shig‘i tinglanadi.

-Qo‘shiq nima haqida ekan?

-Vatan haqida ekan.

O‘quvchilarning javoblaridan so‘ng “BBB” metodi orqali vatan haqidagi ma‘lumotlar umumlashtiriladi. O‘quvchilar aytishadi.

O‘qituvchi ularning javoblarini xattaxtaga yozadi.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi.

O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Sana: “ ” _____ 20 __-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

2-mavzu: Tabiatni muhofaza qilish

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsad: Tabiat nima? Nima uchun biz unu asrashimiz va g‘amxo‘rlik qilishimiz kerakligi haqida suhbat o‘tkazish.

Kun shiori: Biz tabiatni asraymiz

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantiradi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san‘at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantiradi.

Sinf soati mashg‘ulotning jihozi: Tabiat manzarasi, o‘simliklar, hayvonlar aks ettirilgan rasmlar va videotasmlar.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:


Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.



II. Asosiy qism: Tabiat manzarasi aks ettirilgan: yurtimiz ko‘chalari, bog‘lari hayvonot dunyosi va qushlar, gulzor bog‘lar va tog‘lar aks ettirilgan videolavha namoyish etiladi. Bularning barchasi bir so‘z bilan tabiat deb atalishi aytib o‘tiladi.

O‘qituvchi: Tevarak atrofimizni o‘rab turgan, mana shu lavhada ko‘rgan barcha narsalar tabiat deb ataladi.

Tabiat jonli va jonsiz tabiatga bo‘linadi.

Hozir ko‘rgan lavhani ko‘z oldingizga keltiring va shu yerdan qaysilari jonli tabiatga, qaysilari jonsiz tabiatga kirishina aniqlab olamiz.

O‘quvchilar guruhlariga bo‘linib jonli va jonsiz tabiatga kiruvchi harsalar alohida- alohida yozib chiqishadi va uni doskaga osib qo‘yiladi. Hamma ishni yakunlagach, tushunchalar umumlashtiriladi.

Demak, Hayvonlar ham odamlardek nafas olishi, ovqatlanishi, ulg‘ayishi va qandaydir holatlarda insonlarga foyda keltirishi mumkin ekan. O‘simliklar ham ildizlari orqali suv ishadi, oziqlanadi, barglari orqali nafas oladi, bizlarga iflos havoni barglari orqali tozalab, toza havo yetkazib beradi.

Bugun biz sizlar bilan tabiat haqida suhbatlashdik. Yerimizdagi har bir xas- cho‘p ham biz uchun qadrlı ekani haqida bilib oldik. Tasavvur qiling, agar uyimizda bir kun kechgacha suv, tabiiy gaz va elektr nuri bo‘lmasa qanday holat yuzaga keladi. Endi bu holatni yer yuzida bo‘lmasligini ko‘z oldingizga keltiring. Buning uchun bizlar nima qilishimiz kerak? Albatta tabiatni asrab –avaylashimiz kerak. Shundagina kelajak avlodlarimiz ham bu ne‘matlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu maqsadda O‘zbekiston ham ko‘p davlatlar qatori “EKOSAN” jamgarmasiga a‘zo bo‘lgan. Bu jamg‘armaning asosiy maqsadi yer yuzida nobud bo‘lib ketayotgan ba‘zi bir hayvonlar, o‘simliklarni ko‘paytirish va saqlash, suv va havoning ifloslanishining oldini olish choralari ko‘rishga qaratilgan.

Bu ishda biz ham o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerakligini tushunib oldik.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi.

O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20 __yil

Sana: “__” _____ 20__-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

3-mavzu: Mening kun tartibim

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarga kun tartibi haqida tushuncha berish, kun tartibini tuzishga o‘rgatish. O‘quvchilarga sog‘lom turmush tarzi bu kun tartibiga rioya qilish orqali amalga oshishi haqida tushuncha berish;

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallaydi

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantiradi

Sinf soati mashg‘ulotning jihozi: Kun tartibiga oid foto va plakatlar hamda slayd va SD, DVD disklar.

Tashkiliy qism. O‘quvchilar bilan salomlashish. Davomatni aniqlash. Mashg‘ulot mavzusining maqsad va vazifasi bilan O‘quvchilarni tanishtirish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash:

a) Savol – javob o‘tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

Buyuk hakim Ibn Sinoning uqtirishicha, insonning qancha umr ko‘rishi uning o‘ziga bog‘liq. Sog‘lom bo‘lish uchun inson kundalik hayotda qator qoidalarga amal qilmog‘i kerak. Ertalabki badantarbiya, sayr qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, dam olish, sport bilan shug‘ullanish, ozodalikka rioya qilish sog‘lom bo‘lish va uzoq umr ko‘rishning asosiy shartlaridir. Salomatlikni saqlashda to‘g‘ri ovqatlanish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot ilmining ustozlaridan biri bo‘lgan Gippokrat: «Bizning ovqatimiz – bizning dori-darmonimiz», – deb bekorga aytmagan. Biz tanamiz uchun zarur bo‘lgan kuch-quvvat va darmondorilarni ovqat orqali olamiz. Tarkibida yod moddasi kam mahsulotlarni muntazam iste‘mol qilaversak, tez charchaydigan, serzarda, kamharakat bo‘lib qolishimiz mumkin. Temir moddasiga boy oziq-ovqatlarni kam iste‘mol qilish natijasida esa odam kamqon, kasallikka chalinuvchan, asabiy bo‘lib qoladi.

Qadimda Sharq tabobatida kasalliklarni eng avvalo ovqat bilan davolashga harakat qilingan. Ovqatdan davo topilmagan holatlardagina dori-darmon va boshqa tibbiy muolajalar buyurilgan. Odamning tanasi sog‘lom bo‘lsa, ruhi ham tetik bo‘ladi. O‘qishi a‘lo, ishida unum bo‘ladi. Keling, shu o‘rinda Samad bilan Ravshanning kun tartibini ko‘rib chiqaylik.



Samadning kun tartibi

Samad o‘ta injiq va qaysar bola. U har kuni yarim tungacha televizor tomosha qiladi. Ertalab esa barvaqt uyg‘onishni istamaydi. Bazo‘r o‘rnidan turib, apil-tapil yuvinadi. Ba‘zan nonushta qilishga ham ulgurmaydi, och-nahor maktabga jo‘naydi. Darslarda esnab, lanj holatda o‘tiradi. O‘qituvchisining aytgan gaplari qulog‘iga kirmaydi. Maktabdan kela solib ko‘chaga chopadi. Samadning har kuni shu zayilda o‘tadi. Shu bois uning rangi siniq, ishtahasi yo‘q, fanlarni o‘zlashtirish darajasi ham past.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

vab-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat 1-sinf o'quvchilarga Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyeu Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**